



Funded by the
European Union



Press reliz

O'zbekiston: BMT shartnomaviy qo'mitalari so'nggi tavsiyalarining amalga oshirilishi bo'yicha ekspertlar muhokamasi

TOSHKENT, 13 May 2022 yil - Bugun Xalqaro huquqshunoslar komissiyasi (XYuK), Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy boshqarmasi (ROCA), "Yuksalish" Umummilliy harakati Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan hamkorlikda Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish - CEDAW va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha - CESCR qo'mitalari so'nggi tavsiyalarining O'zbekiston tomonidan amalga oshirilishiga bag'ishlangan xalqaro jamoatchilik muhokamasini o'tkazmoqda.

Ekspertlar muhokamasi Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish - CEDAW va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha - CESCR qo'mitalari tavsiyalarining samarali bajarilishi masalalariga qaratiladi. Tadbirdan so'ng BMTning inson huquqlari bo'yicha ushbu ikki asosiy organining xulosalari va tavsiyalarining O'zbekiston tomonidan bajarilishida muhim bo'lgan tavsiyalarni o'z ichiga olgan muhokama yakunlari nashr etiladi.

Tadbir davomida milliy va xalqaro ekspertlar, shu jumladan BMT shartnomaviy organlari a'zolari, fuqarolik jamiyatni vakillari, davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va alohida ekspertlar tavsiyalarning samarali bajarilishini ta'minlash uchun O'zbekiston tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim chora-tadbirlarni muhokama qiladilar. Qisqacha taqdimotlar savol-javoblar bilan davom ettiriladi. Shunday qilib, tadbir turli manfaatdor tomonlar uchun BMTning eng so'nggi tavsiyalarini ishlab chiqishda ishtiroy etgan tegishli shartnomaviy organlar a'zolari bilan uchrashish va muhokama qilish imkoniyatini taqdim etadi.

"So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish va gender tengligini ta'minlash maqsadida bir qator huquqiy, institutsional va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Yevropa Ittifoqi mazkur o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi, shu bilan birga Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish - CEDAW va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha - CESCR qo'mitalarining yakuniy xulosalari va tavsiylarini hech qanday istisnolsiz samarali amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Shu munosabat bilan, bugungi tadbir O'zbekiston manfaatdor tomonlariga qo'mitalarning tavsiyalarini inobatga olgan holda sohada mavjud muammolarni hal qilishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihatlarga yanada aniqlik kiritadi deb umid qilaman" - deydi Yevropa Ittifoqi O'zbekistondagi Delegatsiyasining Siyosat, matbuot va axborot masalalari bo'limi rahbari janob Mindaugas Karbauskis.

"Bir necha yillardan buyon XYuK O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarni amalga oshirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoya qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ish olib borib keladi. CESCR va CEDAW qo'mitalarining so'nggi yakuniy xulosalari O'zbekiston o'zining xalqaro majburiyatlarini amalga oshirish uchun nimalarga e'tibor qaratishi kerakligi, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar va ayollarning inson huquqlari bo'yicha muhim va aniq tavsiyalar beradi. Ushbu tavsiyalarini samarali amalga oshirish uchun puxta reja ishlab chiqish juda muhimdir." deydi Xalqaro yuristlar komissiyasi Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha Dasturi Direktori Roshin Pilley xonim.

"Ma'lumki, mamlakatimiz tomonidan xalqaro hujjatlar ijrosi bo'yicha hisobotlar belgilangan muddatlarda BMTning tegishli qo'mitalariga taqdim etiladi. Xususan, bu yil mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng imzolagan dastlabki xalqaro hujjatlardan biri Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (CESCR) hamda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya (CEDAW) ijrosi bo'yicha O'zbekiston hisoboti taqdim etildi. Hisobotlarni o'rganish natijasida BMTning tegishli qo'mitalari tomonidan O'zbekiston uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Va bu tavsiyalar keng jamoatchilikka e'lon qilindi. Tavsiyalarda mamlakatimizda so'ngi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasi alohida e'tirof etilgan. Bugungi

xalqaro jamoatchilik eshituvining ahamiyati shundaki, unda xalqaro va milliy ekspertlar, xususan, BMT va Xalqaro yuristlar komissiyasining mutaxassislari, shuningdek, mahalliy NNTlar vakillari ishtirok etishmoqda. O'ylaymanki, bu sohada xalqaro tajribani bilish, o'zaro tajriba almashish O'zbekistonga berilgan tavsiyalarning ijrosida muhim ahamiyat kasb etadi", - deydi "Yuksalish" Umumilliy harakati Raisi Bobur Bekmurodov.

Tadbir Yevropa Ittifoqi tomonidan Demokratiya va inson huquqlari bo'yicha Yevropa instrumenti (EIDHR) orqali moliyalashtiriladigan va Xalqaro yuristlar komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan "O'zbekistonda xalqaro huquqni qo'llash sifatini oshirish (EQUAL)" loyihasi doirasida tashkil etilgan. EQUAL loyihasining asosiy maqsadi fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash orqali O'zbekistonda kamsitishga moyil bo'lgan guruhlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini teng himoya qilishga ko'maklashishdan iborat.

Muhokamalar tarixi

Mazkur tadbir EQUAL loyihasi doirasida tashkil etilgan uchinchi ekspertlar muhokamasi bo'lib, ularning birinchisi BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini amalga oshirish va ikkinchisi BMT shartnomaviy organlariga davriy hisobotlarni ishlab chiqish va taqdim qilishda fuqarolik jamiyatining roliga bag'ishlangan. 2017-2021 yillarda XYuK tomonidan Yevropa Ittifoqing O'zbekistondagi Delegatsiyasi ko'magida amalga oshirilgan ACCESS (iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar va standartlarni ilgari surishda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish) loyihasi doirasida oltita ekspertlar muhokamasi bo'lib o'tdi.

Ko'proq ma'lumot uchun, iltimos, quyidagilar bilan bog'laning:

Temur Shakirov

Katta huquqiy maslahatchi
Xalqaro Yuristlar Komissiyasi (XYuK)
Rue des Buis ko'chasi, 3 uy
P.O. Box 91
1211 Jeneva 1, Shveytsariya
E-mail: temur.shakirov@icj.org
vebsayt: www.icj.org



Yevropa Ittifoqing O'zbekiston Respublikasidagi Delegatsiyasi

Xalqaro Biznes Markaz, Amir Temur ko'chasi.
107B, 100084 Toshkent, O'zbekiston
Tel.: +998 71 120 16 01/02/03/04
vebsayt: www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan



Dilorom Roziqova

Loyiha koordinatori
"Yuksalish" Umumilliy harakati
Toshkent shahri, Sh. Ashidov ko'chasi, 16-uy
("Poytaxt" Biznes markazi, 5-qavat)
Tel.: (+998 71) 239 33 23
E-mail: info@yuhm.uz
vebsayt: www.yuksalish.uz



Guljaxon Amanova

Milliy Dastur Koordinatori, O'zbekiston
Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar
boshqarmasining Markaziy Osiyo bo'yicha
mintaqaviy boshqarmasi (ROCA) 4
Shevchenko ko'chasi,
Toshkent, O'zbekiston
Tel.: (+998 78) 120 34 50 (ext132)
E-mail: gamanova@ohchr.org
vebsayt: www.ohchr.org



Dilnoza Muratova

Direktor o'rinnbosari,
O'zbekiston Respublikasi
Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi
Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 16-uy
Tel.: (+998 71) 239 1358
E-mail: info@nhrc.uz
vebsayt: <https://nhrc.uz>



Loyihani amalga oshiruvchilar:

Xalqaro Yuristlar Komissiyasi (XYuK)
Rue des Buis ko'chasi, 3 uy
P.O. Box 91
1211 Jeneva 1, Shveytsariya

va

"Yuksalish" Umummilliylar Harakati
Toshkent shahri, Sh. Ashidov ko'chasi, 16
("Poytaxt" Biznes markazi, 5-qavat)

Moliyaviy manbalar:

Loyiha Demokratiya va inson huquqlari Yevropa instrumenti (EIDHR) tomonidan moliyalashtiriladi
Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi Delegatsiyasi
Xalqaro Biznes Markaz, Amir Temur ko'chasi. 107B,
100084 Toshkent, O'zbekiston
Tel.: +998 71 120 16 01/02/03/04
Vebsayt: www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan